

SHO‘ROLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHADAGI QATAG‘ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI XUSUSIDA (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Majidov Akbar Fayzullayevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Majidov Anvar
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.013>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflarning 1918-1940 yillarda Sovet hokimiyati jazo organlarining O‘zbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o‘tkazgan qatag‘on siyosati haqidagi izlanishlari Jizzax viloyati misolida ochiqdangan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy qatag‘onlarning milliy, diniy qadriyatlarini cheklash, madaniy merosni yo‘q qilish, senzura va boshqa shakllarda, iqtisodiy qatag‘onlar esasliq, majburiy to‘lovlar, iqtisodiy faoliyatni cheklashva boshqa shakllarda amalga oshirilganligi xususidagi tarixiy faktlar bir qancha ilmiy adabiyotlar, manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sotsializm, Sho‘ro tuzumi, kolxozlashtirish, Stalin, “aksilinqilobchi”, NKVD, qatag‘on, bolshevik, Jizzax, Prezident.

О РЕПРЕССИИ СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)

Меджидов Акбар Файзуллаевич
преподаватель Джизакского государственного педагогического университета.

Меджидов Анвар
преподаватель Джизакского государственного педагогического университета.

Аннотация. В данной статье на примере Джизакской области раскрываются исследования авторов о репрессивной политике, проводимой карательными органами советской власти в социально-экономической сфере в Узбекской ССР в 1918-1940 годах. Также в статье содержится ряд исторических фактов о том, что социальные репрессии проводились в форме ограничения национальных и религиозных ценностей, уничтожения культурного наследия, цензуры и других формах, а экономические репрессии проводились в форме налоги, обязательные платежи, ограничения экономической деятельности и другие формы будут освещены на основе научной литературы и источников.

Ключевые слова: социализм, советский строй, колхоз, Сталин, «контрреволюционер», НКВД, репрессии, большевик, Джизак, Президент.

ON THE POLICY OF REPRESSION OF THE SOVIET STATE IN THE SOCIO-ECONOMIC FIELD AND ITS CONSEQUENCES (THE EXAMPLE OF JIZZAK REGION)

Majidov Akbar Fayzullayevich
teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Majidov Anvar
teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. This article reveals the authors' research on the repressive policies pursued by the punitive bodies of the Soviet government in the socio-economic sphere in the Uzbek SSR

in 1918-1940 using the example of the Jizzakh region. The article also highlights historical facts concerning the restriction of national and religious values, the destruction of cultural heritage, censorship and other forms, as well as economic repression in the form of taxes, mandatory payments, restrictions on economic activity and other forms. based on a range of scientific literature and sources.

Key words: socialism, Soviet system, collective farm, Stalin, "counter-revolutionary", NKVD, repression, Bolshevik, Jizzakh, President.

KIRISH. Bugungi kunda Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan yurtdoshlarimizni tarixini o'rganish asosiy vazifalarimizdan biridir. Sovet davri tarixining eng mudhish voqealaridan biri 1920-40 yillarda xalqqa qarshi olib borilgan qatag'on siyosati bo'lib, uning sabablari va oqibatlarini xolisona yoritish, qatag'on qurbonlari xotirasini tiklash masalasi hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati va uning oqibatlari xususida (Jizzax viloyati misolida) alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlarda, jumladan, "O'zbekistonning yangi tarixi" [1] kitobida, A.Asqarovning "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" [2], mualliflar Q.Usmonov., M.Sodiqovlarning "O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar)" kitobida [3], A.A.Toyirovning "O'zbekistonda sovet hokimiyatining qatag'on siyosati (Samarqand viloyati misolida, 1918-1938 yy.)" [4], F.Boboevning "O'rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixi (1925-1935 yillar)" [5] nomli monografiyasida o'rganilayotgan viloyatda o'sha davrda hukm surgan muammo va ziddiyatlar haqida ozmi-ko'pmi, biz uchun qimmatli ma'lumotlar mavjud. Va shuningdek, o'rganilayotgan davrga oid arxiv, gazeta va jurnal materiallari tadqiqotning manbaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Sho'rolar hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'onlik siyosatini (Jizzax viloyati misolida) ochiqlash, unga oid mavjud manbalarni o'rganish, jumladan ushbu maqolani asoslash jarayonida sinxron usul, qiyosiy tarixiy usul, tarkibiy tahlil kabi usul kabi usullardan foydalanildi.

Yurtimizda qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida amalga oshirilgan dastlabki ezgu ishlar qatoriga hech shubhasiz, aytish mumkinki, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 1999 yil 12 mayda Sho'ro tuzumi davrida yurt istiqloli va ozodligi yo'lida nohaq ayblanib, turli jazo va tazyiqlarga duchor qilingan vatandoshlarimiz faoliyatlarini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish maqsadida e'lon qilingan Farmoyishi [6] va ushbu Farmoyishga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 iyuldagi Vatan va halq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risidagi Qarorida [7] belgilangan vazifalar kiradi.

Xususan, Birinchi Prezidentimizning 2000 yilning 12 mayida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasining ochilishi marosimida so'zlagan nutqida tadqiq qilinayotgan mavzuga jiddiy yondashuv aks etgan: "1937-1953 yillarda O'zbekistonda 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganligi, tarixiy adolatni tiklash, xalqimizning yaqin o'tmishdagi sirligicha qolayotgan sahifalarini to'la ochib berish, undan saboq chiqarish, bugungi kun va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirishda alohida o'rin tutadi" [7].

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Yig'ilishda Prezidentimiz: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz

zarur” [8],- deb alohida ta’kidlagan edi.

Natijalar. Darhaqiqat, Turkiston xalqlari doimo o‘z erki uchun xorijiy bosqinchilarga qarshi kurash olib borganlar. Milliy mustaqillik uchun kurash butun Turkistondagi kabi Jizzax viloyatida (o‘rganilayotgan davrda hudud Samarqand viloyati tarkibida bo‘lgan) ham shiddatli tarzda kechgan. 1917 yilgi Oktabr davlat to‘ntarishidan keyin hokimiyatga kelgan bolsheviklar partiyasi o‘zidan oldingi imperiya mustamlakachilaridan ham reaksiyroq ish tutdi. Bolsheviklar mustabid davlat apparatini shakllantirib, ma’muriy-buyruqbozlik tizimini qurishga kirishdilar [4]. Milliy urf-odatlarining ta’qib etilishi, inson erki va haq-huquqlarini poymol etilishi hamda boshqa bir qancha omillar keyinchalik butun Turkiston bo‘ylab Sho‘ro tuzumiga qarshi qurolli harakatning avj olishiga sabab bo‘ldi.

Tarixda qaysi bir tuzum yoki jamiyatni olib qaramaylik, uning o‘ziga xosligi va kamchiliklari mavjud. Xuddi shunday holat O‘rta Osiyoda sovet hokimiyati mavjud bo‘lgan davrga ham xosdir [5]. Mustabid tuzum davrida hokimiyatga nisbatan tanqidiy fikrda bo‘lgan har qanday kishi dushman sifatida baholangan, uni jismonan va ma’nan yo‘q qilish usullari o‘ylab topilgan. Bu kabi xatti-harakatlarga zo‘rlilik bilan o‘rnatilgan tuzumni mustahkamlashga qaratilgan yo‘l sifatida qaralgan. Shunday usullar jamiyatning rivoji uchun xizmat qilmasada, bolsheviklar hokimiyatni egallashda va dastlabki yillardanoq shunday yo‘lni tutdi. Ular amalga oshirmoqchi bo‘lgan rejalarga qarshi chiqqan kishilarga nisbatan siyosiy tus berishdi, natijada ko‘plab vatandoshlarimiz turli nohaq ayblovlar bilan qatag‘on qilindi.

Yaqin tariximizdan bizga ma’lumki, Sovet hukumatining kollektivlashtirish siyosati tufayli O‘zbekiston SSRda dastlab yo‘qsillarni (dehqonlar, hunarmandlar va barcha mulksizlarni) shirkatlarga tortish, keyin esa kolxozlar tashkil qilib, xususiy mulkchilikka chek qo‘yish maqsadida tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha jamoaga birlashtirish boshlab yuborildi [2]. Mulkdorlar, hatto, o‘rtahol dehqon xo‘jaliklarini sinf sifatida quloq qilishlar yo‘qsillarni jipslashishga, jamoa xo‘jaliklarida birgalashib ishlashga olib keldi.

Xususan, VKP (b) MQning 1929 yilgi noyabr plenumi jamoalashtirish sur‘atlarini haddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani qo‘ydi. 1929 yil 27 dekabrda agrar markschilar konferensiyasida so‘zga chiqqan Stalin “yoppasiga jamoalashtirish asosida quloqlarni sinf sifatida tugatish” shiorini e’lon qildi.

Ommaviy “quloqlashtirish” aholining mulkdor qatlamiga nisbatan zulm va zo‘ravonlikka aylanib ketdi. 2000 yil nashr etilgan “O‘zbekistonning yangi tarixi” kitobida Zarafshon viloyatidagi “kolxozlashtirish faollari”ning Stalinga yo‘llagan xati o‘rin olgan. Maktubda shunday jumlar bor: “Biz quloqlar va boylarga nisbatan zamonaviy siyosatning barcha qoidalari asosida muomala qilmoqdamiz, faqat chorva mollari, go’sht, asboblarni emas, balki urug‘lik, oziq-ovqat va qolgan mol-mulkni ham olib qo‘ymoqdamiz. Onasi qanday tuqqan bo‘lsa, o‘shanday holda qoldirmoqdamiz” [1].

Muhokama. Arxiv materiallaridan anglashiladiki, Sovet hukumati vakillari mafkuradan chetga chiqib belgilangan vazifalarni bajarmayotgan insonlarga turli bahonalar bilan “quloq”, “xalq dushmani” nomini qo‘yishga ham bordilar. Chunonchi, Jizzax vohasi Zomin hududidagi Achchi qishloq sovetiga qarashli Beshkubi qishlog‘ida yashovchi Osan Botirov qishlog‘ida chakana savdogarlik bilan shug‘ullangani uchun, bo‘rttirilib u kolxozda ishlamayapti, kimlar bilandir aloqa qilyapti, “xalq dushmani” deb mazkur shaxsga nisbatan tazyiq oshiriladi.

Yana gazeta-arxiv materiallariga e’tibor qaratamiz: Zomin tumani “Kolxoz g‘alabasi” gazetasining 1935 yil yanvar sonida “Jinoyatchi qishloq vakili” maqolasi e’lon qilinadi. Unda Beshbuloq daha Bozaxona qishloq vakili Hazratqulov yakka xo‘jaliklarni “Sen quloq bo‘lding!” bahonasida qo‘rqitib pora olganligi, bermaganlar esa qishloqlardan ketishga majbur bo‘layotganligi aytiladi. Masalan, ushbu qishloq fuqarosi Sobirov Farmon Shamurzoqovdan 3 pud bug‘doy, 3 pud arpa, 6 pud g‘allani “urug‘lik” deb o‘zlashtirib olib qo‘yadi. Bundan

tashqari, bir necha quloqlardan “seni quloqlikdan oqlayman”, -deb 500 so‘m pul undirishga erishadi. Qizig‘i shundaki, mazkur maqolada Daha soveti raisi Mirzayorov bu insonning kirdikorlarini bilsa-da, lekin ahamiyat bermaganligi ham yoritib o‘tiladi [9].

Yana e‘tiborimizni tarixiy faktlarga qaratsak: “Orif Olimjonov-1989 yil tug‘ilgan, Jizzax shahridan, VKP (b) sobiq a‘zosi, xizmatchi, bir qator mas‘ul lavozimlarda ishlab kelgan, Toshkent shahrida yashagan, OGPU kollegiyasi uni 1932 yil 14 oktabrda otuvga hukm qilgan, so‘ngra jazo 10 yil muddatli mehnat tuzatuv lageri bilan almashtirilgan, mahbus jazoni Slovenskiy lagerida o‘tagan. NKVDning Leningrad oblasti boshqarmasining maxsus “uchligi” tomonidan 1937 yil 9 oktabrda otuvga hukm qilingan. 1937 yil 27 oktabrda Kareliya ASSR Sandarmox qatlgohida otilgan” [12].

“Muhammadjon Fayzulin-1902 yili tug‘ilgan, Jizzax shahridan, o‘zbek, partiyasiz, Jizzax shahridagi 6-son maktabining sobiq o‘qituvchisi, kooperativ tashkiloti xizmatchisi, OGPU kollegiyasi 1932 yil 14 oktabrda RSFSR Jinoyat kodeksining 58-2-4-moddasi bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazoni Slovenskiy lagerida o‘tagan. NKVD Leningrad oblast boshqarmasi maxsus “uchligi” 1937 yil 9 oktabrda oliy jazoga hukm qilgan, Kareliya ASSRdagi Sandarmox qatlgohida 1937 yil 27 oktabrda otilgan” [12].

Ta‘kidlagan bo‘lardik, Sovet hokimiyatining siyosiy va ma‘naviy sohadagi zo‘ravonlik siyosati iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi zo‘ravonlik siyosati bilan chambarchas bog‘liq edi. Birgina ijtimoiy soha misolida masalaga yondashilsa, sinfiy kurash mulkdorlarni va ulamolarni sinfiy dushman sifatida tugatishda hamda diniy ateizm siyosati ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Sovet hokimiyati tomonidan diniy urf-odatlar doimiy ravishda ta‘qib ostiga olinishi fuqarolarning noroziligiga sabab bo‘lgan. Ushbu norozilik nafaqat islom diniga e‘tiqod qiluvchilar, balki, turli dinga e‘tiqod qiluvchi fuqarolar orasida ham yuz bergan edi.. Masalan, Samarqand shahrida yashovchi bir guruh fuqarolar yahudiylar sinagogi o‘rniga maktab qurilishiga norozilik bildirgan bo‘lsalar, Mirzacho‘l tumaniga chegara tumandagi fuqarolar diniy urf-odatlarga e‘tiqod qilishga ruxsat berishmayotganligi uchun o‘z noroziliklarini bildirishgan. Ammo ma‘muriyat bu noroziliklarni rad etgan [10]. Manbalarda sovet hokimiyati uchun “sinfiy dushman” hisoblangan ulamolarning har bir viloyat, har bir tuman bo‘yicha ro‘yxatlari berilgan [4].

Sovet hokimiyatining mulkdorlar va ulamolarga qarshi qatag‘on siyosati bir tomondan sovet mafkurasi va iqtisodiy tuzumini qarar toptirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularning mol-mulkini davlat hisobiga undirilishiga, uchinchi jihatdan esa sovet tuzumiga qarshi fikrlaydigan har qanday mustaqil fikr egasidan qutulish maqsadiga yo‘naltirilgan edi.

Ma‘lumki, Jizzax vohasi ham o‘lkamizning boshqa joylari kabi qulay iqlimli, unumdor yerlarga boy bo‘lganligi uchun aholi chorvachilik, dehqonchilik va sug‘orma dehqonchilikda ham katta tajribaga ega edi. Biroq sovet hokimiyati bu omilni mutlaqo hisobga olmadi, qishloq xo‘jaligini markaz uchun xom ashyo manbasi yetishtirishga ixtisoslashtirdi. Bu siyosatni amalga oshirish uchun eng avvalo kolxozlar tuzish orqali yer-suvni davlat mulkiga aylantirish va qishloq xo‘jaligida davlat monopoliyasini tashkil etishga e‘tibor qaratildi. Faqat shunday harakat orqali sovet hokimiyati o‘z rejalarini vohada bemalol amalga oshira olishi mumkin edi.

Sho‘ro hokimiyati yer-suv egalarini sinfiy dushman sifatida ayblab, ularning mulkini g‘ayriqonuniy ravishda tortib ola boshladi. Bu yerlarda jamoa xo‘jaliklarini tashkil etish orqali ularni o‘z tasarrufiga olishga kirishdi. Jamoa xo‘jaligi deb yuritilgan bu xo‘jaliklar aslida davlatga xizmat qiluvchi xo‘jaliklar bo‘lib, nomigagina jamoaniki edi, xolos. Bu xo‘jaliklar moddiy manfaatdorlikni ta‘minlay olmas, xo‘jalik yuritishda esa mustaqillikka ega emas edi. Kolxozlashtirish yerni xalqniki deb e‘lon qilish orqali aslida uning qo‘lidan tortib olish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat nazoratiga olish uchun o‘ylab topilgan bir bahona edi [11].

Totalitar sovet tuzumi bedodligi va zulmining haddan ziyod kuchayib borishi nafaqat

yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzini, qismatini zavol toptirib qolmasdan, shu bilan birga millionlab fuqarolarning oddiy insoniy qadr-qimmatini, or-nomusi hayosizlarcha tahqirlandi. G‘addor tuzum zulmkorlari o‘z g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarini avj oldirib borarkanlar, bunda har bir insonning yurish-turishi, kundalik mashg‘uloti, muomalasidan tortib to uning qanday tafakkur yuritishigacha bo‘lgan hamma jarayonlarni o‘z nazorati ostiga olishga intilganlar [3]. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasini jilovlash, uni muayyan chegara doirasida ushlab turish va shu yo‘l bilan badkirdor tuzum sha‘niga dog‘ tushirmaslik, uning soxta obro‘-nufuzini asrash, avaylash edi.

Xullas, ko‘rib o‘tilayotgan yillarda mustamlaka siyosatini ko‘klarga ko‘tarishga harakat qiladigan, qatag‘on apparatini ishga solishga imkon beradigan mudhish tuzum shakllandiki, bu narsa respublikaning boshqa hududlari kabi Jizzax vohasida ham o‘ziga xos tarzda amalga oshirilib borildi. Mazkur hududda ham davlat xo‘jaliklarida ishlagan, partiya tashkilotlarida faoliyat yuritgan fidoyi xodimlar arzimagan ayblovlar bilan partiyadan o‘chirilib, ishdan haydalgan.

Sho‘rolar davlati e‘lon qilgan “sotsialistik insonparvarlik”, adolat haqidagi g‘oyalar bilan haqiqiy voqelik o‘rtasida katta ziddiyatlar mavjud edi. Bu hol milliy ma‘naviy hayotning asl mohiyatini noto‘g‘ri tushunish va ko‘p asrlik ma‘naviy qadriyatlarni yo‘q qilishga urinish bilan ifodalanadi. Jarayon, qatag‘onlik xatti-harakatlari ostida ayniqsa kuchayib borganligini yuqoridagi dalillar ham tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. II jild. Toshkent: 2000, 351-b.
2. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015.532-533-betlar.
3. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Toshkent: “Sharq”, 2010.
4. Toyirov A.A. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati (Samarqand viloyati misolida, 1918-1938-yy.). T.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Samarqand: 2007.31-b.
5. Boboev F. O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixi (1925-1935 yillar). Toshkent: “Fan”, 2024, 15-b.
6. “O‘zbekiston ovozi”, 1999 yil 13 may.
7. Xalq xotirasi oldida bosh egamiz. Hujjatlar, ma‘ruzalar, xotiralar, xatlar. Toshkent: “Sharq”, 2001.6-7-8-betlar.
8. Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi - Shavkat Mirziyoev // <https://xs.uz>.
9. “Barcha vazifalarni hal etaturg‘an siyosiy ma‘raka”. Zomin “Kolxoz g‘alabasi” gazetasi. 1935 yil 2 fevral soni.
10. O‘zR MDA, R-86-jamg‘arma, 10-ro‘yxat, 1500-yig‘ma jild, 6-varaq.
11. Shamsutdinov R. O‘zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlarini. Toshkent: “Sharq”, 273-275-betlar.
12. Xolmirzaev E. O‘zbekistonlik siyosiy mahbuslarning GULAG lagerlaridagi hayotiga doir // O‘zbekistonda sovet davlatining qatag‘on siyosati: kelib chiqishi sabablari va fojiali oqibatlarini. Ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent: 2012, 160-161-betlar.
13. “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 oktabrdagi F-5598-son farmoyishi // <https://lex.uz/docs/5041012>.